

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH DAVLAT JAMG‘ARMASI
FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-
TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

So‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan tadbirkorlik subyektlarining 46 mingdan ziyod loyihalariga 15 trillion so‘mdan ortiq miqdorda moliyaviy yordam ko‘rsatildi.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida:

1. Quyidagilar Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) faoliyatining kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali joylarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha sa’y-harakatlarni davom ettirish;

eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash orqali respublikada eksport hajmini oshirishga ko‘maklashish;

tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;

mamlakatda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, jumladan hududlarda iqtisodiy o‘sish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim drayver sohalarni rivojlantirish borasida moliyaviy ko‘maklashish;

tijorat banklarining kreditlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo‘nalishlar, jumladan axborot tizimlari va dasturlarini yaratish loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

2. Belgilansinki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

a) Jamg‘arma tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit (lizing)lari bo‘yicha:

1 — 3 toifadagi tuman (shahar)larda joylashgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyiholari bo‘yicha foiz stavkasining asosiy stavkadan oshgan, biroq Markaziy bank asosiy stavkasining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini;

4-5 toifadagi tuman (shahar)larda joylashgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyiholari bo‘yicha foiz stavkasining asosiy stavkadan oshgan, biroq Markaziy bank asosiy stavkasining 40 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi.

Farg‘ona viloyati So‘x tumanida ro‘yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, qiymati 10 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit (lizing)lari bo‘yicha foiz stavkasining 10 foizlik punktidan yuqori qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi.

Bunda, kompensatsiya “2+1” tamoyili asosida avval kredit (lizing)ning dastlabki ikki yiliga taqdim etiladi, tadbirkorlar tomonidan biznes-rejada ko‘zda tutilgan mahsulot (xizmat)larni sotish hamda ish o‘rinlari yaratish ko‘rsatkichlari to‘liq bajarilgan taqdirda, qo‘shimcha bir yilga uzaytiriladi;

b) Jamg‘arma tomonidan tijorat banklari kredit (lizing)lariga kafillik:

1 — 3 toifadagi tuman (shahar)larda joylashgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ajratiladigan kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda;

4-5 toifadagi tuman (shahar)larda joylashgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ajratiladigan kredit summasining 75 foizigacha (75 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard soʻmdan oshmagan miqdorda taqdim etiladi.

Bunda, “a’lo” kredit tarixiga ega boʻlgan kichik tadbirkorlik subyektlariga, ular avval olgan kreditlari boʻyicha Jamgʻarma kafilligidan foydalanayotgan boʻlishidan qatʼi nazar qoʻshimcha kreditlar boʻyicha belgilangan umumiy miqdor va shartlar doirasida kafilliklar taqdim etiladi.

(2-band Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-martdagi PF-43-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 25.03.2023-y., 06/23/43/0167-son)

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tijorat banklari bilan birgalikda Jamgʻarma tomonidan 2022-yil 1-iyulga qadar kompensatsiya yordamlari koʻrsatilishi orqali ajratilgan kredit (lizing) biznes-rejasida koʻrsatilgan ish oʻrinlarini yaratish va mahsulot (xizmat)lar aylanmasi kabi koʻrsatkichlar toʻliq bajarilmagan hollarda 2024-yil 1-oktabrdan boshlab kompensatsiya toʻlovlarini toʻxtatish choralarini koʻrsin.

(3-band Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-martdagi PF-43-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 25.03.2023-y., 06/23/43/0167-son)

4. Belgilansinki, tijorat banklarining kredit va lizinglari boʻyicha kompensatsiyalar hamda kafilliklar Jamgʻarmaning mavjud moliyaviy resurslari va tavakkalchiliklarini hisobga olgan holda, kichik tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladi, quyidagilarni nazarda tutuvchi kreditlar bundan mustasno:

alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va (yoki) ularning ulgurji savdo faoliyatini tashkil etish;

savdo (bundan eksportoldi moliyalashtirish mustasno), umumiy ovqatlanish hamda avtomobillarga yonilgʻi quyish hamda elektr quvvatlantirish shoxobchalari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish;

yengil va ilgari foydalanishda boʻlgan yuk avtotransport vositalari sotib olish va ularni taʼmirlash (chet eldan olib kelinadigan yuk avtotransport vositalaridan tashqari);

bino-inshootlarni sotib olish;

aylanma mablagʻlarni shakllantirish (eksportoldi moliyalashtirish bundan mustasno);

ilgari olingan kredit va lizinglarni yoki boshqa har qanday qarzni qaytarish;

nobank kredit tashkilotlari, lizing va sugʻurta kompaniyalari resurs bazasini shakllantirish.

5. Quyidagilar:

Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasini boshqarish boʻyicha Kengash tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi tashkiliy tuzilmasi [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Shunday tartib oʻrnatilsinki, unga muvofiq:

2023-yil 1-yanvardan boshlab Davlat budjetidan ajratiladigan mablagʻ miqdoridan kelib chiqib, Jamgʻarma tomonidan bir moliya yilida qabul qilinadigan moliyaviy yordam miqdorlari Jamgʻarmani boshqarish boʻyicha Kengash tomonidan belgilanadi.

Bunda, bir moliya yilida qabul qilinadigan moliyaviy yordam miqdorlari choraklar boʻyicha taqsimlanadi;

Jamgʻarma tomonidan taqdim etiladigan kafilliklarning maksimal umumiy miqdori Jamgʻarma mablagʻlarining 20 barobari miqdoridan oshmasligi kerak;

Kengash loyihalarning tavakkalchilik darajasidan kelib chiqqan holda, taqdim etilgan kafillik summasining ikki foizi miqdorigacha bir martalik vositachilik haqi olinishi tartibini belgilaydi;

Jamgʻarmaning moliyaviy yordamlaridan foydalanish yuzasidan maʼqullangan loyihalar boʻyicha shartnomalar 5 ish kuni ichida elektron raqamli imzodan foydalangan holda rasmiylashtiriladi.

7. Jamgʻarmani boshqarish boʻyicha Kengashga:

manfaatdor vazirliklar, idoralar va tijorat banklari rahbarlarining Jamgʻarma moliyaviy yordamlaridan foydalanish natijadorligi haqidagi hisobotlarini muntazam eshitib borish;

moliyaviy yordamlarning samaradorlik ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, Farmonning 2-bandida ko'zda tutilgan moliyaviy yordam miqdorlarining yuqori chegarasi saqlangan holda uning miqdorini kamaytirish yoki moliyaviy yordam ko'rsatishni to'xtatish yuzasidan qaror qabul qilish;

Jamg'armaning moliyaviy yordamlaridan foydalanish uchun tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan bazaviy me'yorlar va shartlarni belgilash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

Jamg'arma faoliyatini rivojlantirish va uni jahon standartlari talablariga muvofiqlashtirish uchun uning tashkiliy tuzilmasi va xodimlar soniga o'zgartirish kiritish;

Jamg'armaga yuklangan vazifalarning ijrosini tashkil qilish, tegishli loyihalarni ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va zarur tavsiyalar tayyorlanishini ta'minlash maqsadida ekspert tahlil guruhini tashkil etish;

Jamg'arma tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi xizmat turlarini joriy etish hamda ularning tartib va qoidalarini belgilash;

Jamg'arma hisobidan kompensatsiya taqdim etilishi orqali ajratilgan kredit (lizing) biznes-rejasida ko'rsatilgan ish o'rinlarini yaratish va mahsulot (xizmat)lar aylanmasi ko'rsatkichlari bajarilmagan hollarda kompensatsiya to'lovlarini to'xtatish yuzasidan qarorlar qabul qilish;

(7-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-martdagi PF-43-sonli Farmoniga asosan yettinchi va sakkizinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.03.2023-y., 06/23/43/0167-son)

tadbirkorlik subyektlari muammolarini tezkorlik bilan hal qilishni ta'minlash maqsadida Jamg'armaning moliyaviy yordam ko'rsatish parametr va qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vakolati berilsin.

8. Jamg'armaning "Tadbirkor" axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — axborot tizimi) ishga tushirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (S. Xolxo'jayev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

uch oy muddatda moliyaviy yordam taqdim etilayotgan loyihalar bo'yicha o'rnatilgan bazaviy me'yor va shartlar bajarilishining masofaviy monitoringini amalga oshirish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi, shuningdek, Davlat soliq qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va tijorat banklarining axborot tizimlarini Jamg'arma tomonidan ma'lumotlardan bepul foydalanilishini ko'zda tutgan holda, axborot tizimi bilan integratsiyalashtirsin;

2023-yil 1-maydan boshlab tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarga taqdim etiladigan moliyaviy yordamlar Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan belgilangan tavakkalchilik darajasidan kelib chiqib, skoring tahlil asosida axborot tizimi orqali amalga oshirilishini ta'minlasin;

tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratish, to'lanayotgan kompensatsiya mablag'larining ularga manzilli yetib borishini ta'minlash maqsadida axborot tizimini takomillashtirib borsin.

10. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (S. Xolxo'jayev) Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Savdo-sanoat palatasi (D. Vaxabov) bilan birgalikda ikki oy muddatda:

Jamg'arma tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashning yangi turlarini joriy etish, xususan, biznes-treninglar tashkil etish, konsultativ xizmatlar ko'rsatish va yangi tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi takliflarni;

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga Jamg'arma o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan sudlarga arizalar, da'volar va shikoyatlar bilan murojaat qilganda, uni davlat bojidan ozod qilishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

12. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

13. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib moliya vaziri T.A. Ishmetov hamda iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining birinchi o'rinbosari S.M. Xolxo'jayev belgilansin.

Farmon ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish Bosh vazir o'rinbosari J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 9-iyun,
PF-150-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son Farmoniga
1-ILOVA

Tadbirkorlik subyektlariga rag'batlantirish choralari qo'llaniladigan olis va borish qiyin bo'lgan, shuningdek, mehnat resurslari ortiqcha hududlar

RO'YXATI

T/r	Hududlarning nomlanishi
Respublika bo'yicha jami 51 ta tuman, jumladan:	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	
1.	Taxtako'pir tumani
2.	Qonliko'l tumani
3.	Mo'ynoq tumani
4.	Chimboy tumani
5.	Qorao'zak tumani
6.	Shumanay tumani
Andijon viloyati	
7.	Paxtaobod tumani
8.	Bo'ston tumani
9.	Ulug'nor tumani
Buxoro viloyati	
10.	Shofirkon tumani
11.	Qorako'l tumani
12.	Olot tumani
Jizzax viloyati	
13.	Baxmal tumani
14.	Zomin tumani
15.	Forish tumani
16.	Yangiobod tumani
Qashqadaryo viloyati	
17.	Dehqonobod tumani
18.	Chiroqchi tumani
19.	Mirishkor tumani
20.	Ko'kdala tumani
Navoiy viloyati	
21.	Xatirchi tumani
22.	Nurota tumani
23.	Konimex tumani
24.	Tomdi tumani
25.	Uchquduq tumani


Namangan viloyati	
26.	Mingbuloq tumani
27.	Chortoq tumani
Samarqand viloyati	
28.	Kattaqo'rg'on tumani
29.	Qo'shrabot tumani
30.	Paxtachi tumani
Sirdaryo viloyati	
31.	Sardoba tumani
32.	Guliston tumani
33.	Boyovut tumani
34.	Xovos tumani
Surxondaryo viloyati	
35.	Uzun tumani
36.	Qiziriq tumani
37.	Oltinsoy tumani
38.	Boysun tumani
39.	Muzrabod tumani
40.	Sariosiyo tumani
41.	Bandixon tumani
Toshkent viloyati	
42.	Oqqo'rg'on tumani
43.	Bekobod tumani
44.	Bo'ka tumani
Farg'ona viloyati	
45.	Qo'shtepa tumani
46.	Yozyovon tumani
47.	So'x tumani
Xorazm viloyati	
48.	Qo'shko'pir tumani
49.	Tuproqqal'a tumani
50.	Yangiariq tumani
51.	Yangibozor tumani

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son **Farmoniga**
2-ILOVA

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini boshqarish bo'yicha Kengash

TARKIBI

J.A.	—	O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, <i>Kengash raisi</i>
Qo'chqorov		
Sh.D.	—	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri, <i>Kengash raisi</i>
Kudbiyev		<i>o'rinbosari</i>
I.I. Norqulov	—	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari
J.R. O'roqov	—	O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi o'rinbosari
Lavozimi	—	uch nafar mustaqil a'zo
bo'yicha		
A.M.	—	Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi direktori,
Maxamatov		<i>Kengash kotibi</i>



Boshqaruv xodimlarning cheklangan soni — 44 nafar.

Yordamchi va texnik xodimlar soni belgilangan me‘yorlarga muvofiq aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son Farmoniga
4-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim
hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-5780-son Farmonida:

a) 24-bandda:

“a” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash Jamg‘arma tomonidan bosh bitimlar asosida vakolatli tijorat banklari orqali milliy valyutada amalga oshiriladi”;

“b” kichik bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash asosan kafilliklar shaklida, boshqa hollarda esa tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar shaklida amalga oshiriladi”;

“v” kichik band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 25-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-maydagi “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6002-son Farmoni 4-bandining “a” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan joylashtirish vositalarini yangi sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqlashtirish uchun turizm sohasi subyektlariga umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yilgacha muddatga kompensatsiya taqdim etish”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-son Farmoni 6-bandining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“loyihalarni kreditlash bozor tamoyillari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan yosh tadbirkorlar biznes loyihalari uchun umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6059-son Farmoni 1-bandining **yettinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Yaylov xo‘jaligini rivojlantirish” uyushmasi (keyingi o‘rinlarda — Uyushma) a‘zolari — klaster ishtirokchilariga kavrak plantatsiyalarini tashkil qilish va uni qayta ishlash, mayda shoxli nasldor mol xarid qilish va ko‘paytirish, shuningdek, mol so‘yish, ozuqa bazasini yaratish, yarim tayyor va tayyor, shu jumladan go‘sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish, teri va junni qayta ishlash hamda binolarni rekonstruksiya qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash loyihalarini moliyalashtirish uchun 2020 — 2023-yillarda umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kompensatsiya taqdim etiladi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-son Farmoni 6-bandining **“a” kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kichik tadbirkorlik subyektlariga nasos va suvni chuchuklashtiruvchi uskunalarni xarid qilish uchun umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi”.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktabrdagi “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6091-son Farmonining **1-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2024-yil 1-yanvarga qadar Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi eksport qiluvchilarga, shu jumladan asosiy faoliyat turi savdo-vositachilik bo‘lgan eksport qiluvchilarga hamda “reeksport” bojxona rejimida qayta ishlash mahsulotlarini olib chiquvchilarga:

a) eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag‘lar uchun umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kreditlari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etadi;

b) tijorat banklarining eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag‘lar uchun ajratiladigan kreditlarining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq summasi 2,5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik beradi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan eksport qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4337-son qarorida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilsin”.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6244-son Farmonining **2-bandida**:

a) **“a” va “b” kichik bandlar** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida beriladigan bank kreditlari summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq 2,5 milliard so‘mdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kafilliklar;

b) qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalariga umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari boʻyicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi”;

b) “v” kichik band oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi “Respublikada oʻsimliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6262-son Farmoni 4-bandining “a” va “b” kichik bandlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi tomonidan umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari boʻyicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi;

b) ajratiladigan kredit taʼminotining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq 2,5 mlrd soʻmdan ortiq boʻlmagan miqdorda Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi kafillik taqdim etadi”.

9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-iyuldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi PF-6263-son Farmoniga ilovaning 3-bandi va 8-bandining “b” kichik bandi oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish, shuningdek, baʼzilarini oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblash toʻgʻrisida”gi PF-95-son Farmoniga 1-ilovaning 12-bandi oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PQ-3225-son qarorida:

a) 3¹-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3¹. Shunday tartib oʻrnatilsinki, unga muvofiq Jamgʻarma tomonidan taqdim etiladigan kafilliklarning maksimal umumiy qiymati 10 trillion soʻmdan, biroq Jamgʻarma mablagʻlarining 20 barobaridan ortiq boʻlmagan miqdorda oʻrnatiladi”;

b) 4-band va qarorga 2-ilova oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4005-son qarorining 5-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Baliqchilik loyihalari uchun (akvakultura yoʻnalishidagi) 2019 — 2022-yillarda Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi hisobidan umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari boʻyicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etish tartibi oʻrnatilsin”.

13. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrdagi “Respublikada pillachilik tarmogʻini jadal rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4047-son qarori 5-bandining birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. “Oʻzbekipaksanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning tutzorlar barpo qilish, ipak qurti urugʻini sotib olish, pilla yetishtirish, shu jumladan pilla yetishtiruvchi fermer xoʻjaliklari va kasanachilarga boʻnak berish, ular bilan yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirish, qurilish va rekonstruksiya ishlarini bajarish, shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish boʻyicha loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 2019 — 2022-yillarda Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi hisobidan umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari boʻyicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30

foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etish tartibi o'rnatilsin".

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4406-son qarori 7-bandining "b" kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"b) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi;

kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafilliklar beriladi".

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-son qarorining 5-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"5. Belgilansinki, qishloq xo'jaligi birlashmalari a'zolari va meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rag'batlantirish ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi, bunda yangi bog', tokzor va issiqxonalar barpo etish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash obyektlarini yaratish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan miqdordagi kreditlar bo'yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan asosiy stavkadan oshgan, lekin asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya va qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdordagi kreditlar bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi) miqdorda kafillik taqdim etiladi".

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4576-son qarorining 2-bandida:

"a" kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"a) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) hisobidan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va quyonchilik bo'yicha, shu jumladan chorva komplekslarini qurish, yirik va mayda shoxli nasldor chorva mollarini xarid qilish, chorva mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan miqdordagi kreditlar bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, lekin asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya va kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish";

"b" kichik band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi "G'alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4634-son qarori 6-bandining "b" kichik bandida:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi";

to'rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinchi va **oltinchi xatboshilar** tegishincha to'rtinchi va beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash hamda ipoteka krediti bozorini yanada kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4701-son qarori 10-bandining **ikkinchi — to'rtinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik beriladi;

foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun kreditning butun davri, biroq kredit olingan kundan boshlab 24 oydan ortiq bo'lmagan muddat davomida kompensatsiya taqdim etiladi. Bunda:

kompensatsiya bitta uy-joy uchun kreditning 5 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan qismi bo'yicha to'lanadi".

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4767-son qarori 3-bandining **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2023-yil 1-yanvarga qadar "Tomorqa xizmati" MChJ hamda qishloq xo'jaligi kooperativlariga beriladigan kreditlar bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik berilishi belgilansin;

fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari, "Tomorqa xizmati" MChJ va qishloq xo'jaligi kooperativlariga Fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etish tizimi joriy etilsin".

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-avgustdagi "2020-2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4798-son qarorining **6-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"6. Tadbirkorlarning biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan kompensatsiya taqdim etish tartibi joriy etilsin".

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son qarori 17-bandining **"b" kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"b) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi".

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi "2020 — 2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4889-son qarori 3-bandi "v" kichik bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"biznes-loyihalarni amalga oshirish maqsadida umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy

stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan kompensatsiya taqdim etiladi".

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4899-son qarori 14-bandining "a" kichik bandida:

ikkinchi va uchinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"biotexnologiyalar sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq 2,5 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda kafillik beriladi;

umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan biotexnologiyalar sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha foiz stavkasining asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi";

to'rtinchi va beshinchi xatboshilar chiqarib tashlansin.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-yanvardagi "Namangan viloyatining Kosonsoy, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4941-son qarori 4-bandining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"sertifikatlangan sabzavot, poliz, dukkakli va moyli ekinlar urug'larini hamda mevali daraxt va tok ko'chatlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaligi va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlari, shuningdek, klasterlar va kooperatsiyalarning urug'lik va ko'chat xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kompensatsiya taqdim etiladi".

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5009-son qarori 1-bandi 4-kichik bandining "a" kichik bandida:

ikkinchi va uchinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan milliy valyutada ajratiladigan kreditlar bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi;

kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etiladi";

to'rtinchi va beshinchi xatboshilar chiqarib tashlansin.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagi "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5011-son qarorining 3-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"3. Elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun elektrotexnika tarmog'i korxonalariga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kompensatsiya taqdim etish tartibi o'rnatilsin".

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-5017-son qarori 8-bandi "b" kichik bandining **ikkinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin.

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5071-son qarori 3-bandining **beshinch xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kompensatsiya taqdim etiladi".

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-son qarori 1-bandining **"a" kichik bandida**:

a) **ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"kichik tadbirkorlik subyektlariga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi";

b) **to'rtinchi xatboshi** chiqarib tashlansin.

30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-iyundagi "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5146-son qarori 2-bandi **"a" kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"a) tijorat banklari tomonidan 2025-yil 1-yanvarga qadar quyidagilar uchun ajratilayotgan kredit bo'yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan:

omuxta yem va parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha;

parrandachilik loyihalarini amalga oshirish uchun umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi".

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5200-son qarori 11-bandining **to'rtinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan kompensatsiya taqdim etiladi".

32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi "Chavandozlar maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5212-son qarorining **9-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"9. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan xususiy sherikka (investorga) Chavandozlar maktablarining tuman (shahar) seksiyalarini tashkil etish uchun umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy

stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi”.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-oktabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq yukini kamaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5268-son qarori 2-bandining [birinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Belgilansinki, tijorat banklaridan xorijiy valyutada olingan kreditlar milliy valyutaga o‘tkazilganda amaldagi kompensatsiya taqdim etish to‘g‘risidagi shartnomalari mavjud bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining ekvivalenti 1 million AQSh dollaridan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan kreditlarning asosiy stavkadan oshadigan, lekin asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismi bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tomonidan uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi”.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-121-son qarori 4-bandining [ikkinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan chorvachilik bo‘yicha, shu jumladan chorva komplekslarini qurish, yirik va mayda shoxli nasldor chorva mollarini xarid qilish, chorva mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya hamda kredit summasining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati 2,5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etiladi”.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-204-son qaroriga [1-ilovaning](#) 9-pozitsiyasi “Bajarish muddati” ustunidagi “iyun” so‘zi “sentyabr” so‘zi bilan almashtirilsin.

36. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 330-son qarori 7-ilovasining rus tilidagi matnidagi [izoh qismi](#) quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Proizvodstvo i izgotovleniye prekursorov, ukazannix v pozitsiyax 16 i 17, poluchayemix v kachestve dopolnitelnogo produkta ot proizvodstva (pererabotki) pervichnoy produkcii, osuzhestvlyayutsya yuridicheskimi litsami pri nalichii u nix litsenzyi na proizvodstvo i izgotovleniye konkretnix prekursorov”.

Izoh: mazkur ilovaning 1 — 9, 12 — 34-bandlari 2022-yil 1-iyuldan e‘tiboran kuchga kiradi.

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son; 25.03.2023-y., 06/23/43/0167-son)